Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati

Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi.
Maktabgacha boshlang’ich va maxsus ta'lim metodikasi
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Bunyoddilfuz@gmail.com (99)7561653

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarga jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning afzalliklari, hamkorlikda ishlashga o‘rgatish metod va usullari, ijtimoiy-hissiy rivijlantirishga oid bilimlar berilgan. Bolalarga jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘zi haqida anglangan fikrlarini rivojlantirish va jamoaviy o‘yin faoliyati orqali qobilyatlarini yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, shaxsiy, hissiy, jamoa, jamoaviy ish, maktab, sog‘lomlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, harakat, ko‘nikma, bolalar, boshlang‘ich ta’lim, empatiya, loyiha,o‘yin faoliyati, hamkorlik

Командной работы у детей дошкольных образовательных организаций

В данной статье представлены знания о преимуществах формирования навыков командной работы у детей дошкольного возраста, методах и техниках обучения командной работе и социально-эмоциональном развитии. Формирование навыков командной работы позволяет детям развивать самосознание и раскрывать свои способности посредством командных игр.

Ключевые слова: дошкольное образование, личностный, эмоциональный, команда, командная работа, школа, здоровье, личностно-ориентированное образование, движение, навыки, дети, начальное образование, эмпатия, проект, игровая деятельность, сотрудничество

The importance of forming teamwork skills in children of preschool educational organizations

This article provides knowledge about the benefits of forming teamwork skills in preschool children, methods and techniques for teaching teamwork, and socio-emotional development. By forming teamwork skills, children can develop their self-awareness and reveal their abilities through team play activities.

Keywords: preschool education, personal, emotional, team, teamwork, school, health, person-centered education, movement, skills, children, primary education, empathy, project, game activity, cooperation

Kirish. Jahonda bolalikni kafolatlash, maktabgacha ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirish asnosida bolalar salomatligi, psixo-ijtimoiy farovonligini ta’minlash, ularning huquqlarini himoya qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, UNESKO tomonidan Erta bolalik uchun Global hamkorlik strategiyasi (GPS for early childhood, 2021-2030) erta bolalik davridagi asosiy huquqlar va xizmatlar bolaning ijobiy rivojlanishi, oila farovonligi, umrbod ta’lim va

barqaror rivojlanishga erishish[1]ni kafolatlochi strategiyalarni ilgari suradi. Bu esa, maktabgacha ta’limda bolalarni optimal rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularda hamkorlikka asoslangan jamoaviy munosabatlarni yuksak darajaga olib chiqish mazmunini takomillashtirish, jamoaviy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan texnologiyalarning ta’sirchanligini oshirish, birgalikdagi faoliyatga tayangan holda samarali ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni qaror toptirishning muhimligini ifodalaydi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish, bolalar jamoasi bilan tashkil etiladigan mashg‘ulotlarning mazmuni va samaradorligini kafolatlovchi me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini oshirish, maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish hamda ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish”[2] bilan bog‘liq maqsadlarning belgilanganligi maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, jamoaviy faoliyat bilan bog‘liq texnologiyalarning mazmuni va imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O’RQ-595 sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tog’risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-son “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2026-yil 5-fevraldagi PF 19-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati, unda ta’lim-tarbiyaning mazmuni, tarbiyalanuvchi hamda tarbiyachilarga qo‘yiladigan talablar, ularning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati, bolalarda ijtimoiy ahamiyatli sifatlarni shakllantirishga oid darslik, qo‘llanma hamda tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Quyida ularga to‘xtalib o‘tamiz: B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirovalarning “Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” nomli o‘quv qo‘llanmasida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini o‘ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari, bolalarning me'yoriy rivojlanish mezonlari, zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning mazmuni va tarbiyachi mahorati, bolalar ta'lim-tarbiyasida qo‘llaniladigan o‘yinlarning psixologik xususiyatlari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan o‘tkaziladigan korreksion-rivojlantiruvchi o‘yin-mashg‘ulotlar hamda maktabgacha ta'lim

[1] Global Partnership Strategy for early childhood, 2021-2030. Published in 2022 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France – 2022.

https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000380077

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni \\ (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son).

muassasalarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning mazmuni [3]tahlil etilganligini ko‘rishimiz mumkin.

O.U.Hasanboyeva, M.X.Tojiyeva, N.M.Qayumova va bosh. tomonidan nashr etilgan “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” nomli pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanmasida bog‘cha yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning o‘ziga xos xususiyatlari, qonun-qoidalari va amalga oshirish vosita, metodlari yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur o‘quv qo‘llanmada tarbiyachining jamiyatda tutgan o‘rni hamda bog‘cha bolalari tarbiyasida oila va jamoatchilikning hamkorligi[4] masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘rganishlar davomida bolalarning tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi, guruh faoliyatida ishtirok etishi, o‘zaro muloqotga kirishishi vazifalarni birgalikda bajarishi va jamoa qoidalariga rioya etish ko‘nikmalari o‘rganildi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturiga maktabgacha yoshdagi bolalarning kun tartibi aniq belgilab berilgan. Ushbu kun tartibi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayoni o‘yin tarzida olib boriladi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining asosiy maqsadi bola shaxsiga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘yin va kompetensiyalarga tayanadi. Ushbu yondashuvlar quyidagilarga e’tibor qaratadi:

- Har tomonlama rivojlanishni ta’minlash – jismoniy, ijtimoiy-hissiy, kommunikativ, bilish va ijodiy rivojlanish.
- Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish- bolalarni boshlang‘ich ta’limga va hayoti davomida ta’lim olishga tayyorlash
- Madaniy o‘zlikni mustahkamlash- O‘zbekiston tarixi, an’analari va qadriyatlari bilan faxrlanish tuyg‘usini tarbiyalash.
- Global fuqarolikni rivojlantirish- bolalarni hurmat, hamdatrdlik va hamkorlikka o‘rgatish, buni ham global, ham mahalliy kontekstda amalga oshirish.
- Barqaror rivojlanishga ko‘maklashish – ekologik ong va madaniyatni shakllantirish hamda mas’uliyatni oshirish. Bolalar kun davomida o‘zaro muloqotda bo‘lish natijasida jamoada ishlash va hamkorlik ko‘nikmalari shakllanadi.
- Inklyuzivlikni qo‘llab-quvvatlash – turli qo‘shimcha qadriyat sifatida qabul qilinadigan ijodiy muhitni yaratish.

Asosiy maqsad – bolalarni zamonaviy, tez o‘zgaruvchi dunyoda muvaffaqiyatli va faravon hayot kechirishlari uchun bo‘lgan kompetensiyalar, bilimlar va ko‘nikmalar bilan ta’minlash, shu bilan birga ularning milliy meros bilan mustahkam bog‘liqligini saqlashdan iboratdir.

Ilk qadam davlat o‘quv dasturida keltirilgan yondashuvlar asosida nafaqat bolada hamkorlik ko‘nikmalarini balki, axloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishning katta imkoniyatlarni yaratadi.

Natija va mulohazalar. Maktabgacha ta’limda jamoaviy ko‘nikmalarni shakllantirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tengdoshlar bilan ijobiy muloqotga kirishish; umumiy o‘yin va faoliyatda qatnashish; navbat va qoidalarga rioya qilish; o‘z fikrini bildirish va boshqalarning fikrini tinglash; vazifalarni taqsimlash va birgalikda bajarish; jamoaviy natija uchun mas’uliyat his etish.

Maktabgacha ta’lim tizimida jamoaviy ko‘nikmalarni shakllantirishda tarbiyachi asosiy o‘rin tutadi. U bolalarga jamoaviy faoliyatning qoidalarini tushuntirish bilan birga, ularda hamkorlikka nisbatan to‘g‘ri munosabatni ham shakllantiradi. Tarbiyachi tomonidan tashkil etilgan jamoaviy

[3] Djurayeva B.R, Tojiboyeva H.M, Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. O’quv qo’llanma. O‘zPFITI nashriyoti, - T – 2015. – B 112.

[4] O.U.Hasanboyeva, M.X.Tojiyeva, N.M.Qayumova va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o’quv qo’llanma. 3-nashr. Toshkent – “Ilm ziyo” – 2012.

o‘yinlar va faoliyatlar bolalar ongida mustahkamlanib, ularning kundalik munosabatlarida namoyon bo‘la boshlaydi.

Tarbiyachining faoliyati nafaqat tushuntirish bilan cheklanmaydi, balki u bolalarga shaxsiy na’muna ham ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘proq kattalarga taqlid qiladi. Agar tarbiyachi o‘zi hamkorlikka, adolatga va o‘zaro hurmatga rioya qilsa, bolalar ham shu xulqni o‘zlashtiradi.

Jamoada ishlash ko‘nikmasi shaxsning kelgusi ta’lim bosqichlari va kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatining muhim omilidir. Maktabgacha yoshda shakllangan hamkorlik tajribasi bolaning maktab davrida jamoa bilan tezroq moslashishiga, guruh ishlarida faol ishtirok etishiga va kelajakda jamoaviy mehnat madaniyatini egallashiga zamin yaratadi.



Bolalarni hamkorlikdagi faoliyatga undash, shu bilan birga bolalarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllatirish.

Kerakli jihozlar: katta mato va to‘plar.

Asosiy qism: Har bir bolaga to‘p beriladi, ular to‘pni bir – biriga uzatishda raqamlarni aytishlari kerak. Bolalar to‘pni to‘g‘ri raqamga yo‘naltirishlari kerak bo‘ladi. Bunda matoni qattiq ushlagan holda silkitiladi. Tarbiyachi tomonidan to‘xtatilgandan so‘ng qaysi rangli matoni ushlagan ishtirokchi o‘sha rangdagi rag‘bat kartochkani oladi. Bu esa ularning diqqatini jamlashga va tez fikrlashga yordam beradi.



Natijada: Raqamlarni sanash va ularga mos harakatlarni bajarish orqali matematik ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bolalar raqamlar va jismoniy harakatlarni birlashtirgan holda, matematik ko‘nikmalar bilan birgalikda jamoada ishlashga o‘rganishadi. O‘yin davomida to‘pni to‘g‘ri raqamga yo‘naltirish yoki to‘pni raqamlar yordamida turli vazifalarni bajarish bolalarga matematikani qiziqarli tarzda o‘rgatadi hamda jismoniy faollik ortadi, shu qatorda, bolalar jamoada bir-birini harakatlar orqali tushunish va hamkorlikda ishlay olish ko‘nikmalari rivojlanadi.

O‘yin qoidalariga rioya qilish, bir – birini taqozo etadigan hatti – harakatni yuzaga keltiradi, axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. O‘yin paytida bolalarga harakat usullarini tanlashda mustaqillikni namoyon qilishlari, topqirlik ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi. O‘yin faoliyati kompleks harakterga ega va u turli harakatlar uyg‘unligida yugurish, sakrash orqali quriladi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish ularning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarning o‘zaro hamkorlikka asoslangan faoliyati, muloqot jarayonlari, rolli o‘yinlar hamda birgalikdagi vazifalarni bajarishi ularda jamoaviy ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bolalarda mas’uliyat, tashabbuskorlik, liderlik, empatiya, o‘zaro hurmat va o‘zini nazorat qilish kabi muhim ijtimoiy sifatlar shakllanadi.

Jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda emotsional-qiziqishli, kommunikativ, o‘yinli-faoliyatli va ijtimoiy-refleksiv komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur komponentlar bolalarning tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilishi, muammolarni birgalikda hal etishi hamda ijtimoiy tajribalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik metodlar, hamkorlikka asoslangan ta’lim texnologiyalari va jamoaviy faoliyatlarni keng qo‘llash bolalarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Natijada ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyor barkamol avlodni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi 595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/ru/docs/-4646908
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 802-sonli Qarori https://lex.uz/docs/5179335
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari (1-ilova) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son
4. Щетинина А.М. Социализация и индивидуализация в детском возрасте : учебное пособие. Великий Новгород : НовГУ им. Ярослава Мудрого, 2004. 132 с. 14-стр.
5. Хонхожаева M.R. Мактабгача ёшдаги болалар ижтимоийлашувида жамоанинг ўрни // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. №5. 443 б. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalar-izhtimoiylashuvida-zhamoaning-rni (дата обращения: 01.03.2023).
6. Davletshin M.G., Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva .Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O'quv metodik qo’llanma. T.: 2004. 118 b.